



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'Ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	



O'QUVCHILARDA BADIY MATN LEKSIKASINI O'ZLASHTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR: MUAMMO VA YECHIM

Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Jizzax shahridagi Prezident maktabi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya: Mazkur maqolada 5–6-sinf o'quvchilarining badiiy matn asosida yangi leksik va frazeologik birliklarni o'zlashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Maugli” asaridan olingan matn parchalari asosida so'rovnomaga o'tkazilib, o'quvchilarning so'z ma'nosini kontekst orqali anglash hamda uni faol va nafaol lug'atga kiritish ko'nikmalari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 6-sinf o'quvchilarida leksik kompetensiya 5-sinfga nisbatan yuqoriroq darajada shakllangan bo'lib, bu holat kognitiv rivojlanish va matn bilan ishlash tajribasining ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ko'chma ma'noli, kam qo'llaniladigan va frazeologik birliklarni tushinishda har ikkala sinfdan ham qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari kontekstual o'qitish, parafrazlash, vizual modellashtirish va interaktiv metodlardan foydalanish leksik birliklarni samarali o'zlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Maqola ona tili va adabiyot darslarida so'z boyligini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, frazeologik birliklar, kontekstual o'qitish, badiiy matn, so'z o'zlashtirish jarayoni, nutqiy kompetensiya, 5–6-sinf o'quvchilari, parafrazlash, semantik tahlil, interaktiv metodlar, so'z boyligi, adabiyot o'qitish metodikasi.

Abstract: This article analyzes the process of acquiring new lexical and phraseological units based on literary texts among 5th–6th grade students. In the study, a survey was conducted based on excerpts from “Mowgli”, and the students' abilities to understand word meanings through context and to integrate them into active and passive vocabulary were examined. The results showed that lexical competence in 6th-grade students is more developed than in 5th-grade students, which is explained by cognitive development and increased experience in working with texts. At the same time, difficulties were identified in both groups in understanding figurative, less frequently used, and phraseological units. The findings indicate that contextual teaching, paraphrasing, visual modeling, and the use of interactive methods contribute to the effective acquisition of lexical units. The article provides methodological recommendations aimed at improving approaches to vocabulary development in Uzbek language and literature classes.

Key words: lexical competence, phraseological units, contextual teaching, literary text, word acquisition process, communicative competence, 5th–6th grade students, paraphrasing, semantic analysis, interactive methods, vocabulary, literature teaching methodology.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс усвоения новых лексических и фразеологических единиц на основе художественного текста учащимися 5–6-х классов. В исследовании на основе фрагментов произведения “Маугли” был проведён опрос, в ходе которого изучались навыки учащихся понимать значение слов через контекст, а также включать их в активный и пассивный словарный запас. Результаты показали, что лексическая компетенция у учащихся 6-го класса сформирована на более высоком уровне по сравнению с учащимися 5-го класса, что объясняется когнитивным развитием и увеличением опыта работы с текстами. Вместе с тем выявлены трудности у обеих групп в понимании переносных значений, редко употребляемых и фразеологических единиц. Результаты исследования показывают, что контекстуальное обучение, перефразирование, визуальное моделирование и использование интерактивных методов способствуют эффективному усвоению лексических единиц. Статья содержит научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование методических подходов к развитию словарного запаса на уроках узбекского языка и литературы.

Ключевые слова: лексическая компетенция, фразеологические единицы, контекстуальное обучение, художественный текст, процесс усвоения слов, коммуникативная компетенция, учащиеся 5–6-х классов, перефразирование, семантический анализ, интерактивные методы, словарный запас, методика преподавания литературы.

KIRISH

O'quvchilarning yangi so'zni o'zlashtirish jarayoni bir necha bosqichda kechadi: avvalo, matndagi voqealar rivoji orqali so'zning ma'nosi tushuniladi. O'quvchi notanish so'zning lug'aviy izohini darhol yodlamaydi, balki uni matn ichidagi vaziyat, qahramonlarning harakati, voqealar ketma-ketligi orqali anglay boshlaydi. Shu jarayonda kontekst asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi – so'zning qanday holatda ishlatilgani uning ma'nosini tabiiy ravishda ochib beradi. Har doim ham bu jarayon yuzaga kelavermaydi. Kichik yoshdagi til o'rganuvchilari uchun matndagi notanish so'zlar umumiy mazmunni to'liq anglashda sezilarli qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchilikning asosiy sabablaridan biri – ularning so'z boyligi hali yetarli darajada shakllanmaganidir.

Yuqoridagi fikrlar umumiy ma'noda ona tili va chet tili fanlari uchun birdek taalluqli bo'la oladi, nazarimizda. Biroq chet tilini o'rganuvchi uchun yangi so'zni o'zlashtirish jarayoni ona tiliga nisbatan murakkabroq kechadi. Bu holat, avvalo, inson miyasi faoliyatining o'ziga xos mexanizmlari bilan bog'liq: ona tilidagi so'zlar tabiiy va avtomatik tarzda qabul qilinsa, chet tilidagi birliklar ongli ravishda tahlil qilinadi, tarjima qilinadi va alohida saqlanadi. Shu sababli chet tilida yangi so'zlarni o'zlashtirish ko'proq vaqt, takrorlash va turli kontekstlarda qo'llashni talab etadi. Ona tilidagi badiiy matnlardagi notanish so'zlarni o'zlashtirish jarayoni nisbatan tabiiyroq va samaraliroq kechadi. Chunki o'quvchi ongi bu til muhitiga allaqachon ko'nikkan bo'ladi va so'zlarning ma'nosini ko'pincha obrazlar, qahramonlar nutqi hamda tasviriy ifodalar orqali intuitiv ravishda anglay oladi. Badiiy matndagi tasviriylik, emotsionallik va voqealar rivoji so'zlarning ma'nosini chuqurroq his qilishga yordam beradi. Natijada o'quvchi yangi so'zni o'zlashtirish bilan birga, uni his etadi va nutqida tabiiy qo'llay boshlaydi.

Biroq muammo shundaki, badiiy matnlarda notanish so'zlarning miqdori ortib ketganda, o'quvchining matnini to'liq anglash jarayoni qiyinlashadi. Ko'plab notanish birliklar diqqatni asosiy mazmundan chalg'itadi va o'quvchi voqealar rivojini uzviy kuzatishda qiynaladi. Natijada o'qish jarayoni sekinlashadi, tushunish darajasi pasayadi va matnga bo'lgan qiziqish ham kamayishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur jarayonni o'rganish maqsadida 11–13 yoshli o'quvchilarning 5-sinf adabiyot darsligida berilgan "Maugli" asarini o'qish davomida o'zlashtirgan so'zlari so'rovnoma asosida tekshirildi.

Tadqiqotda o'quvchilarga matndan tanlab olingan notanish va qisman tanish so'zlar ro'yxati taqdim etildi hamda ularning ma'nosini aniqlash, gapda qo'llash va kontekst asosida tushuntirish vazifalari berildi. So'rovnoma natijalari o'quvchilarning yangi so'zlarni qanchalik darajada anglagani, ularni faol va passiv lug'atga kiritish jarayoni hamda badiiy matn bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Mazkur metod orqali o'quvchilarning so'z boyligi, kontekst orqali tushunish ko'nikmalari va nutqiy faoliyat darajasi tahlil qilindi. Mazkur tadqiqotda tahlil uchun tanlangan so'zlar "Maugli" asaridan to'liq holda emas, balki asarning dastlabki 600 so'zdan iborat parchasi asosida ajratib olindi. Bu yondashuv matn hajmini me'yorlash hamda o'quvchilarning e'tiborini muayyan kontekst doirasida jamlash imkonini berdi. Tanlab olingan so'zlar ichidan notanish va qisman tanish birliklar saralab olinib, ular asosida so'rovnoma tuzildi.

Tadqiqotda so'zlar "Maugli" asaridan olingan gaplar tarkibida qoraytirilgan (ajratib ko'rsatilgan) shaklda berildi. So'z ma'nosini gap (kontekst) orqali so'rash juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki o'quvchi so'zni alohida yodlashdan ko'ra, uni matn ichidagi vaziyat va mazmun orqali anglab yetadi. Bu esa so'zning haqiqiy ishlatilish o'rnini tushunishga, uni xotirada mustahkamlashga hamda faol nutqda to'g'ri qo'llashga yordam beradi.

1-jadval

№	Matndan ajratilgan gaplar	Ma'nosi
1.	Shu xayol bilan Ota Bo'ri tog'dan pastga endigina chopib tushmoqchi bo'lib turgan ham ediki, ostonaga hurpaygan dumli pastakkina bir nimaning soyasi tushdi-yu, shikastalik bilan nolib ketdi.	
2.	Shu bois Hindiston bo'rilari Taboqini yoqtirishmasdi. Shunday bo'lsa-da, ular Taboqidan hayiqishardi.	
3.	Negaki changalzor o'rmonda yashovchi o'zga hayvonlarga qaraganda Taboqi bot-bot quturar, shu paytlarda u o'zini qo'yarga joy topolmasdi.	
4.	Bu xushomadgo'y Taboqi degan chiyabo'ri edi.	


So'rovnomada respondentlarning yoshi hamda avval qaysi til muhitidagi maktabda tahsil olgani (rus yoki o'zbek maktabi) ham inobatga olindi. Bu omillar o'quvchilarning so'zlarni o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, tadqiqotda alohida o'zgaruvchi sifatida qaraldi. Shuningdek, tadqiqot 5 va 6-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilib, yosh va ta'lim bosqichi bo'yicha natijalar qiyosiy tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

5-sinf o'quvchilarida to'g'ri javoblar ulushi o'rtacha 49,45%, noto'g'ri javoblar esa 50,55% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar 5-sinf o'quvchilarida leksik birliklarni o'zlashtirish darajasi hali barqaror emasligini, ayrim so'zlarning ma'nosi va qo'llanishida qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. 6-sinf natijalari esa nisbatan ijobiy tendensiyani namoyon etdi. Ushbu sinfda to'g'ri javoblar o'rtacha 62,5%, noto'g'ri javoblar esa 37,5% ni tashkil etgan. Bu holat 6-sinf o'quvchilarida leksik kompetensiya rivojlanganini va so'z boyligidan foydalanish darajasi sezilarli darajada oshganini bildiradi. So'zlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, "oving baroridan kelsin", "boshi og'gan taraf", "ofat", "faqir" kabi birliklar nisbatan yaxshi o'zlashtirilgan bo'lib, ular 80–100% diapazonda to'g'ri javoblar bilan ifodalangan. Biroq "shikastalik bilan", "jo'rttaga", "darranda" kabi so'z va iboralarda ikkala sinfda ham past natijalar kuzatildi. Bu esa mazkur birliklarning kundalik nutqda kam qo'llanilishi yoki o'quvchilar uchun semantik jihatdan murakkab ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, ayrim so'zlarda sinflar o'rtasida sezilarli farq kuzatiladi. Masalan, "qatirma teri", "zimdan", "sipolik bilan" kabi birliklarda 6-sinf o'quvchilari 5-sinfga nisbatan yuqoriroq natija ko'rsatgan. Bu esa yosh oshishi bilan leksik tajriba va kontekstual tushunish qobiliyati rivojlanishini tasdiqlaydi.



2-rasm: 5-6 sinf so'z boyligi va tushunish darajasi (infografika)

Tadqiqot natijalari 6-sinf o'quvchilarida frazeologik birliklarni o'zlashtirish ko'nikmasi 5-sinfga nisbatan ancha barqaror va rivojlangan holatda ekanligini ko'rsatdi. Bu holatni bir nechta didaktik va lingvistik omillar bilan izohlash mumkin. Avvalo, 6-sinf bosqichida o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi va til tajribasi kengayadi. Bu yoshda ular so'z va iboralarni kontekst asosida tahlil qilish va ma'no chiqarish orqali o'zlashtirishga o'tadi. Murakkab va obrazli frazeologik birliklar (masalan, "qatirma teri", "sho'rimiz quriydigan bo'ldi", "oqsoq") 6-sinf o'quvchilari tomonidan yuqori darajada tushunilgan. Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, 6-sinfda ayrim birliklarda 100% natija qayd etilishi (masalan, "qatirma teri", "faqir", "sho'rimiz quriydigan bo'ldi") o'quvchilarning frazeologik birliklarni mustahkamlashda kontekstual o'qitish va matn bilan ishlash samaradorligi yuqori ekanini bildiradi.

6-sinf o'quvchilari tomonidan "shikastalik bilan" iborasi "qochib ketdi" yoki "tezlik bilan" ma'nosida tushunilgan. Natijada syujetdagi mazmun to'liq anglashilmagan. "Hayiqishardi" so'zi "baqirishardi" yoki "xafa edi" so'zlari bilan sinonim sifatida qabul qilingan. "Bot-bot" so'zi "qattiq" yoki "birdan" ma'nolarida noto'g'ri talqin qilingan. Aslida esa u takroriylik, ya'ni "tez-tez, qayta-qayta" ma'nosini bildiradi. Bu xato o'quvchilarning takroriylik va kuchaytirish ma'nolarini farqlashda qiyinchilikka duch kelishini ko'rsatadi. "Xushomadgo'y" so'zi orqali Taboqi nomli qahramonning asl yuzi ochiladi, ammo o'quvchilar uni "ochiqko'ngil" yoki "ko'p xafa bo'luvchi" sifatida noto'g'ri izohlaganlar. Aslida bu so'z maqtov orqali o'z manfaatini ko'zlovchi, ortiqcha maqtov qiluvchi shaxsni bildiradi. Bu yerda ma'no siljishi juda sezilarli bo'lib, ijobiy xarakter xususiyati bilan salbiy ma'no chalkashib ketgan. 5-sinflarda ham xuddi shunday holat kuzatilgan: "yoqimli", "omadli" deya tushunilgan. "Jo'rttaga" so'zi esa "oddiy", "tasodifan" yoki "uzoqqa" ma'nolarida tushunilgan.

Holbuki, bu so'z ataylab, qasddan qilingan harakatni ifodalaydi. Kichik sinf o'quvchilari "shikastalik bilan nolidi" birikmasini "ichida nolidi" shaklida tushungan. "Zimdan nazar soldi" esa "qorong'udan qaradi" degan shaklda anglangan. Bu "zimdan" va "zulmat" leksemalarining shakliy jihatdan o'xshashligi hisobiga yuzaga

kelgan. 4-sinf gacha rus tilida ta'lim olgan o'quvchilarda natijalar ancha past bo'lishi tabiiy hisoblanadi. 5-sinflarda 24 ta respondentdan 4 tasi, 6-sinflarda esa 24 ta respondentdan 1 tasi rus sinfida o'qigani aniqlandi. Ularning natijalariga ko'ra, 5-sinflarda so'zlarni tushunish darajasi 40% ni tashkil qilgan bo'lsa, 6-sinflarda bu ko'rsatkich 55% ni tashkil etgan.

Ona tili va adabiyot darslarida yangi so'zlarni muntazam o'zlashtirib borish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantiradi. Bu jarayonda turli metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, olimlar tomonidan samarali usullar taklif qilingan. Xususan, tadqiqotchi R. Xayrullayeva so'z ma'nosini tushuntirishda uning shakl va ma'no munosabatiga tayangan holda yondashishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi ^[1:492].

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslanib, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari badiiy matndagi so'zlarning o'zlashtirilishiga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Chunki ko'p hollarda ayrim so'zlar e'tibordan chetda qoladi va ular o'zlashtirilmagan holda yangi mavzu o'tilaveradi. Natijada til o'rganuvchining so'z boyligida sezilarli o'zgarish kuzatilmaydi. Yangi so'z alohida emas, balki matn ichida o'rgatiladi. O'quvchi so'zning ma'nosini gap, voqea va qahramon holati orqali anglaydi. Masalan, "jo'rttaga", "zimdan", "xushomadgo'y" kabi birliklar aynan matn ichida tahlil qilinsa, noto'g'ri talqin qilish holatlari kamayadi. Matnda tushunilmagan so'zlarning ma'nosi lug'at yordamida aniqlanadi va uni hayotiy vaziyat bilan bog'lab misol keltirish topshirig'i beriladi.

R. Xayrullayevaning yondashuvi asosida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni ajratish orqali ham vaziyatni yaxshilash mumkin. Shuningdek, o'quvchi so'zni eslab qolishi uchun uni turli vaziyatlarda qo'llab ko'rishi zarur. Shu bois so'zlarni o'zlashtirish jarayonida interaktiv metodlardan – rolli o'yinlar, debatlar, "so'z banki", vizual kartochkalar hamda raqamli platformalardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, "Wordwall" dasturida so'zlarning o'zlashtirilishi yuzasidan topshiriqlar tuzilib, amalda qo'llanilsa, bu jarayon ham qiziqarli, ham foydali bo'ladi.

Matndagi uzun birliklar va tushunilishi qiyin bo'lgan gaplarni o'qitish hamda o'zlashtirish masalasi ona tili va adabiyot darslaridagi muhim metodik yo'nalishlardan biridir. Chunki bunday birliklar o'quvchilarda semantik yuklama, sintaktik murakkablik va kontekstni tushunish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, "Qoya ostida bir vaqtlar yolg'iz o'zlari qo'toslarni bo'g'izlagan, hozir esa qarib, bo'rsiqdek munkillab qolgan tajribali kekxa bo'rilardan tortib, ichida "ha, biz ham bo'sh qolmaymiz" deb o'ylayotgan qirqdan ortiq turli yoshdagi va tUSDagi bo'rilargacha qator tizilishib o'tirardi" ^[3:52].

Avvalo, uzun va murakkab gaplarni o'qitishda bosqichma-bosqich yondashuv samarali hisoblanadi. Bunda gap avval qismlarga ajratiladi (subyekt, predikat, qo'shimcha izohlar), so'ng har bir qismning ma'nosi alohida tushuntiriladi, keyin esa umumiy mazmun qayta tiklanadi. Bu usul o'quvchida sintaktik tuzilmani anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Ikkinchi muhim yondashuv – parafrazlash, ya'ni soddalashtirib qayta aytish metodidir. O'quvchilar murakkab gapni oddiy, kundalik nutq shakliga aylantiradilar. Bu jarayon ularning tushunilmagan qismlarini aniqlash va ma'noni ichki tahlil qilish imkonini beradi.

XULOSA

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ona tili va adabiyot darslarida leksik birliklarni o'rgatishda tizimli, kontekstga asoslangan va interaktiv yondashuvlarni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Bu esa o'quvchilarning nutqiy hamda kommunikativ kompetensiyasini izchil rivojlantirishga, ularning so'z boyligini kengaytirishga va badiiy matnни to'liq hamda chuqur anglashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-mashg-ulotlarida-o-quvchilarga-so-zlarni-o-rgatish-usullari/viewer>
2. D. To'xtayeva. Chet tilida so'z o'zlashtirish jarayoni / Iqro. Toshkent. – 2023. <https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-03>
3. Adabiyot. 5-sinf (2-qism) [Matn]: darslik / Q. Yo'ldoshev, S. Qambarova, D. To'xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov. Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
4. Wordwall.net

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.